



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махамаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемуров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**O‘ZBEKISTON LOGISTIKA BOZORIDA YUK TASHISH XAVFLARINI SUG‘URTA
ORQALI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI**

**ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СНИЖЕНИЯ РИСКОВ
ГРУЗОПЕРЕВОЗОК НА ЛОГИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА
ПОСРЕДСТВОМ СТРАХОВАНИЯ**

**ECONOMIC EFFICIENCY OF REDUCING CARGO TRANSPORTATION RISKS IN
THE LOGISTICS MARKET OF UZBEKISTAN THROUGH INSURANCE**

Sattarova Gulnoza Xabibullayevna
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish jarayonlarida yuzaga keladigan xavflarni sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Sug‘urta xizmatlari logistika tizimining barqaror faoliyatini ta’minlashda, korxonalarning moliyaviy tavakkalchiliklarini kamaytirishda va tashish jarayonlarining uzluksizligini kafolatlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda transport turlari bo‘yicha yuk tashishda uchraydigan xavflar klassifikatsiyasi, ularni sug‘urta orqali boshqarish usullari hamda mahalliy sug‘urta kompaniyalarining amaliyoti o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda logistika faoliyatida yuk sug‘urtasining qo‘llanish darajasi va iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha tahliliy natijalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: logistika, sug‘urta, yuk tashish xavflari, tavakkalchilik, iqtisodiy samaradorlik, transport logistikasi, sug‘urta xizmati, Osago va Kasko sug‘urta turlari.

В данной статье анализируется экономическая эффективность снижения рисков, возникающих в процессе грузоперевозок на логистическом рынке Узбекистана, посредством страхования. Страховые услуги выступают важным фактором обеспечения стабильного функционирования логистической системы, снижения финансовых рисков предприятий и гарантирования непрерывности процессов перевозки. В исследовании изучены классификация рисков, встречающихся при перевозке грузов различными видами транспорта, методы управления ими через страхование, а также практика местных страховых компаний. Кроме того, представлены аналитические результаты по уровню применения и экономической эффективности страхования грузов в логистической деятельности в Узбекистане.

Ключевые слова: логистика, страхование, риски грузоперевозок, риски (таваккалчилик), экономическая эффективность, транспортная логистика, страховая услуга, виды страхования ОСАГО и КАСКО.

This article analyzes the economic efficiency of mitigating risks arising in freight transport processes within the logistics market of Uzbekistan through insurance. Insurance services emerge as a crucial factor in ensuring the stable operation of the logistics system, reducing the financial risks of enterprises, and guaranteeing the continuity of transportation processes. The study examines the classification of risks encountered in freight transport across various modes of transportation, methods for managing them through insurance, and the practices of local insurance companies. Furthermore, the article presents analytical results regarding the extent of cargo insurance application and its economic efficiency in the logistics activities of Uzbekistan.

Key words: logistics, insurance, freight transport risks, risk/contingency, economic efficiency, transport logistics, insurance service, OSAGO and KASKO insurance types.

Bugungi kunda global iqtisodiyotda logistika tizimi har bir mamlakatning raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini belgilab beruvchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Logistika faoliyatining samaradorligi yuk tashish jarayonlarining uzluksizligi, xavfsizligi va iqtisodiy foydaliligi bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, transport jarayonlarida yuzaga keladigan turli xavflar-yukning yo‘qolishi, shikastlanishi, kechikishi yoki favqulodda holatlar natijasidagi zararlar-logistika kompaniyalari uchun jiddiy moliyaviy tavakkalchilik manbai hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan sug‘urta xizmatlaridan foydalanish logistika tizimidagi xavflarni boshqarishning eng samarali vositalaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Yuk tashish jarayonini sug‘urta qilish nafaqat korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlaydi, balki logistik zanjirdagi barcha ishtirokchilar o‘rtasida ishonch va hamkorlik muhitini mustahkamlaydi.

Logistikada sug‘urta tizimi risklarni bir subyektdan boshqasiga o‘tkazish emas, balki ularni ko‘plab ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash mexanizmi sifatida qaraladi. Logistikada sug‘urta kompaniyasi quyidagilarni hisobga oladi: yuk turi (tez buziluvchi, qimmatbaho), marshrut xavfsizligi, transport turi (avto, temiryo‘l, dengiz). Shunga qarab sug‘urta mukofoti belgilanadi hamda yuqori risk yuqori sug‘urta badalini tashkil qiladi. [1]

Zamonaviy ta‘minot zanjirlari tobora murakkablashib borayotganligi sababli, risklar darajasi ham ortib bormoqda. Kutilmagan yo‘qotishlarni qoplash va kompaniyaning moliyaviy barqarorligini saqlashda sug‘urtaning roli – moliyaviy himoya vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Logistika tizimida sug‘urta risklarni boshqarishning ajralmas qismi bo‘lib, moliyaviy xavfsizlik vositasi, ta‘minot zanjiri barqarorligini ta‘minlovchi omil hamda iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi mexanizm hisoblanadi. [2]

Ushbu tadqiqotning maqsadi-O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda transport va logistika sohasidagi islohotlar, infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlari hamda xalqaro savdo hajmining ortishi yuk tashish xavflarini sug‘urta qilishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, logistika kompaniyalarining katta qismi sug‘urta xizmatlaridan yetarlicha foydalanmaydi yoki ularning iqtisodiy samaradorligini to‘liq baholamaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda transport va logistika sohasida qator islohotlar amalga oshirildi. Logistika faoliyatining samaradorligi mamlakat iqtisodiy o‘rinishining barqarorligi va raqobatbardoshligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq yuk tashish jarayonlari doimo muayyan xavflar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning iqtisodiy oqibatlari korxonalar faoliyati samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Yukning yo‘qolishi, shikastlanishi, kechikishi yoki transport vositalarining ishdan chiqishi kabi xavflar logistika zanjirini uzib qo‘yishi va katta moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu sababli bugunki kunga kelib logistika faoliyatida xavflarni sug‘urta orqali boshqarish muhimligi yuqori ahamiyat kasb etib bormoqda.

Sug‘urta-bu xavfni moliyaviy jihatdan taqsimlash va uning ta‘sirini kamaytirish vositasi bo‘lib, u logistika tizimining uzluksiz ishlashi, korxonalarning moliyaviy barqarorligi hamda investitsion jozibadorligini ta‘minlaydi. O‘zbekistonda logistika infratuzilmasining rivojlanishi, nafaqat eksport-import operatsiyalarining kengayishi va xalqaro transport koridorlarining faollashuvida balki mamlakat bo‘ylab yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sug‘urta faoliyatida mavjud sug‘urta turlariga e‘tibor qaratsak, OSAGO va KASKO kabi tushunchalar mavjud.

Osago sug‘urta turi- majburiy avtomobil egalarining fuqarolik javobgarligi sug‘urtasi hisoblanadi. Bunda transport vositasi egasi boshqalarga yetkazgan zarar uchun sug‘urta kompaniyasi tomonidan tovon to‘lanishini ta‘minlovchi majburiy sug‘urta turidir. Yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan taqdirda, aybdor shaxsning emas, balki sug‘urta kompaniyasining jabrlanuvchiga moddiy zararni qoplab berishini ta‘minlashdan iboratdir.

Ushbu sug‘urta turida quyidagilar qoplanadi:

- jabrlanuvchining avtomobiliga yetkazilgan zarar:

- jabrlanuvchining sog‘ligi yoki hayotiga yetkazilgan zarar;
- jamoat mulkiga yetkazilgan zarar.

Ushbu sug‘urta turida sug‘urta kompaniyalari faqatgina jabrlanuvchiga moddiy zararni qoplab berishini hisobga olinsa, aybdor shaxsning mulkiga yetkazilgan zararni qoplash esa ta‘minlanmasdan qoladi. Yuklarni yetkazib berish jarayonlarida bunday holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa aybdor shaxslarning mulkiga yetkazilgan zararni qoplash uchun korxonalar ortiqcha moliyaviy mablag‘lar sarflashiga to‘g‘ri keladi. Bunday holatlarda sug‘urta kompaniyalari KASKO sug‘urta turini taklif etishadi.

KASKO-bu transport vositalarining ixtiyoriy sug‘urtasi bo‘lib, u avtomobilning o‘zi va unga bog‘liq mulkiy manfaatlarni turli xavf-xatarlardan himoya qiladi. Ya‘ni, KASKO sug‘urtasi avtomobil egasini o‘z transport vositasiga yetkazilgan zararlardan himoya qiladi. Shuningdek, KASKO sug‘urtasi — bu OSAGO (majburiy avtosug‘urta) dan farqli ravishda, ixtiyoriy ravishda tuziladigan shartnoma. U jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zararni qoplash bilan birgalikda aybdor shaxsning mulkiga zarar yetgan hollarda ham tovon to‘laydi.

KASKO sug‘urtasi quyidagilarni qamrab oladi:

- yo‘l-transport hodisasi (YTH) oqibatida yetkazilgan zararlari;
- o‘g‘irlik yoki talon-taroj holatlari;
- tabiiy ofatlar (bo‘ron, sel, dovul, toshqin, yong‘in va boshqalar);
- begona shaxslar harakati natijasida yetgan zararlari;
- hayvon bilan to‘qnashuv yoki yo‘ldagi to‘siqlar sababli zarar.

KASKO sug‘urtasi logistika tizimida xavflarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va xizmat sifatiga kafolat berish orqali muhim o‘rin tutadi. U transport vositalarini saqlash, yetkazib berishning uzluksizligini ta‘minlash va kompaniyaning iqtisodiy barqarorligini oshirishda strategik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

OSAGO va KASKO sug‘urtalarini kompleks qo‘llash esa logistika tizimida xavflarni boshqarish tizimini kuchaytirish, transport vositalarining ishonchiligidini ta‘minlash, kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish hamda mijozlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda mamlakat bo‘ylab tashilgan yuk hajmi 1,4 mlrd tonnadan oshdi. Biroq sug‘urtalangan yuklar ulushi hali ham past — taxminan 25–30 foizni tashkil etadi. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi O‘zbekiston bo‘ylab tashishda yukni sug‘urtalash nima uchun kerak? O‘zbekiston — faol savdo, ichki va xalqaro tashuvlar soni ko‘p bo‘lgan mamlakat. Biroq, infratuzilmaning yaxshilanishiga qaramay, yuklarni tashish hali ham ma‘lum xatarlarni o‘z ichiga oladi. Ob-havo sharoitlari, texnik nosozliklar, inson omili, bojxonadagi ushlanib qolishlar — bularning barchasi zararga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, yukning o‘zi yuqori qiymatga ega bo‘lishi mumkin, bu esa hatto kichik zarar ham kompaniya byudjeti uchun sezilarli bo‘ladi.

Yukni sug‘urtalash zarurligining asosiy sabablari quyidagicha:

1. Moliyaviy himoya. Yuk shikastlanganda, o‘g‘irlanganda yoki nobud bo‘lganda zararni qoplash;
2. Tashuvchining javobgarligini kamaytirish. Hatto tekshirilgan logistika kompaniyalari bilan ishlaganda ham fors-major holatlari yuzaga kelishi mumkin;
3. Xalqaro standartlarga muvofiqligi. Agar yuk eksport/import qilinadigan bo‘lsa, sug‘urta ko‘pincha majburiy bo‘ladi;
4. Biznes xotirjamligi. Kutilmagan holatlar byudjetga zarar yetkazmasligi kafolati.

Sug‘urta himoya qiladigan asosiy xatarlar yo‘ldagi yuk ko‘plab sabablarga ko‘ra zarar ko‘rishi mumkin va har doim ham bunday vaziyatlarni oldindan aytib berish yoki oldini olish mumkin emas. Ularning ba‘zilari inson omiliga, boshqalari ob-havo sharoitiga yoki yo‘llarning holatiga bog‘liq. Hatto tajribali haydovchi ham, ayniqsa yo‘nalish yo‘l qoplamasi sifati past bo‘lgan chekka hududlardan o‘tsa, YTHdan saqlanmagan.

Bundan tashqari, bir qator hollarda xatar, masalan, oraliq omborlarda yuk o‘g‘irlanganda yoki shikastlanganda uchinchi shaxslar bilan bog‘liq. Buning fonida sug‘urta shunchaki tanlov emas, balki kompaniya manfaatlarini himoya qilish vositasiga aylanadi. To‘g‘ri tanlangan sug‘urta polisi tovar butunlay yo‘qotilgan taqdirda ham kompensatsiya olish imkonini beradi.

1-jadval. Logistika sohasida sug‘urta faoliyati (mamlakatlar kesimida)

№	Mamlakatlar	Bozor hajmi (mlrd \$)	Asosiy sug‘urta turi	O‘ziga xos jihatlar
1	AQSh	20–25	Cargo (yuk sug‘urtasi), Liability (ekspetidorlik javobgarligi sug‘urtasi)	E-commerce yuqori, AI sug‘urta tizimlari rivojlangan
2	Germaniya	10–15	Marine (dengiz tashuvlari sug‘urtasi), Cargo (yuk sug‘urtasi)	Yevropa logistika markazi, standartlashgan tizim
3	Xitoy	12–18	Cargo (yuk sug‘urtasi)	Eksport hajmi katta, davlat qo‘llab-quvvatlovi kuchli
4	Yaponiya	8–10	Marine (dengiz tashuvlari sug‘urtasi), Aviation (havo transportida tashuvlar sug‘urtasi)	Texnologik logistika, xavfni boshqarish tizimi kuchli
5	Buyuk Britaniya	7–9	Marine insurance (dengiz tashuvlari sug‘urtasi)	London — jahon sug‘urta markazi

Mazkur jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, jahon mamlakatlarida logistika sohasidagi sug‘urta (ayniqsa yuk tashish va transport sug‘urtasi) so‘nggi yillarda juda tez rivojlanmoqda. AQSh va Germaniya davlatlari logistika bozoridagi sug‘urtalash bo‘yicha dastlabki o‘rinda ekani bilan birgalikda, bu davlatlarda sug‘urta bozorining raqamlashtirilishini muhim ta’sirini xam ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozori faol rivojlanmoqda va bugungi kunda kompaniyalar tanlovi ancha keng qamrovli. Ammo bozordagi hamma o‘yinchilar ham bir xil qulay va ishonchli shartlarni taklif qilavermaydi. Tanlashdagi xato nafaqat kompensatsiyaning yo‘qligi, balki sug‘urta hodisasi yuz berganda byurokratik sansalorlikka ham olib kelishi mumkin.

Mijozlarning fikr-mulohazalarini oldindan o‘rganish, shartlarni taqqoslash, logistika sohasida yoki yuridik maslahatchi bilan maslahatlashish muhimdir. Shuningdek, kompaniya da’volarni qanday ko‘rib chiqayotganiga, ya’ni qanchalik tez munosabat bildirishi, qanday hujjatlarni talab qilishi va ko‘rib chiqish muddatiga e’tibor qaratish lozim. Xalqaro standartlar asosida ishlaydigan va global hamkorlar bilan hamkorlik qiladigan sug‘urtalovchilarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Sug‘urta kompaniyasini tanlashda quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

1. Nufuz va tajriba. Fikr-mulohazalar, bozorda ishlash muddati bilan tanishning;
2. To‘lov shartlari. Aniq muddatlar va tartib-taomilning shaffofligi;
3. Xalqaro sug‘urtalovchilar bilan hamkorlik. Tashqi savdo operatsiyalari uchun muhim.

Professional sug‘urtalovchi har doim optimal tarifni tanlashga yordam beradi, logistika zanjiridagi zaif tomonlarni ko‘rsatadi va xatarlarni kamaytirish yo‘llarini taklif qiladi. Shuningdek, ishonchli kompaniya shartnomalar namunalari va qoplashga oid batafsil shartlarini bajonidil taqdim etadi. Bu, ayniqsa, har bir xato qimmatga tushishi mumkin bo‘lgan kichik va o‘rta biznes uchun muhimdir.

Agar tadbirkor savdo, ishlab chiqarish yoki tovarlar yoki xizmatlarni tarqatish sohasida shug‘ullanayotgan bo‘lsa, sug‘urta "qo‘shimcha xarajat" emas, balki biznes xavfsizligiga oqilona sarmoyadir. Ishonchli sug‘urtalovchini tanlash, shartnoma shartlarini tahlil qilish, huquqshunoslar va logistlar bilan maslahatlashishdan tortinmaslik shartdir. Bu noxush kutilmagan hodisalarning oldini olishga va kompaniyani tashqi xatarlarga chidamliligini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Irina Sergeevna. “Sug‘urta orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash” nomli maqola. 2023 y.
2. Martin Christopher “Logistics and Supply Chain Management”. 2020 y
3. (<https://president.uz/uz/lists/view/8559>)

4. <https://www.worldbank.org/ext/en/home>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 27.01.2025 yildagi PQ-28-son
6. <https://www.google.com/search?q=UNESCAP&oq>
7. www.adb.org
8. https://gross.uz/press_center/blog/183
9. Shinnaev X.M., Ochilov I.K., Shirinov S.E., Kenjaev I.G‘. Sug‘urta ishi. Tafakkur bo‘stoni. — Toshkent-2014.
10. www.stat.uz Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

УДК: 332.146.2:338.45(575.123)

**МАҲАЛЛИЙ САНОАТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ ВА 2030
ЙИЛГАЧА ТРАНСФОРМАЦИЯНИНГ ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ (НАМАНГАН
ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)**

**КЛАСТЕРНЫЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ
И ПРОГНОЗИРУЕМЫЕ ПАРАМЕТРЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ДО 2030 ГОДА (НА
ПРИМЕРЕ РЕГИОНА НАМАНГАН)**

**CLUSTER APPROACH IN LOCAL INDUSTRY FORMATION AND FORECAST
PARAMETERS OF TRANSFORMATION UNTIL 2030 (NAMANGAN REGION AS AN
EXAMPLE)**

Муродхўжаева Ф.М.

Наманган давлат университети, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация

Мақолада Наманган вилоятида маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача саноат трансформациясининг прогноз параметрлари тадқиқ этилган. Муаллифнинг методикасига кўра, 136 та маҳалладан 63 таси саноат корхоналарини жойлаштириш учун истиқболли деб топилди: 35 таси «яшил» (71–100 балл), 16 таси «сарик» (41–70), 12 таси «қизил» (0–40 балл) гуруҳларга тақсимланди. Вилоятда учта ихтисослашган кластер — узумчилик (Янгиқўрғон, Поп, Чуст), балиқчилик (Учқўрғон, Норин, Мингбулок), туризм (Чортоқ, Косонсой, Янгиқўрғон) ташкил этиш таклиф этилган. Эконометрик моделлаштириш асосида учта сценарий (оптимистик, базис, пессимистик) бўйича 2030 йилгача прогноз параметрлари ишлаб чиқилган. Оптимистик сценарийда вилоят саноати 2030 йилгача 228,8% га, маҳаллий саноат эса 340,5% га ўсиши кутилмоқда. Мақолада 2024–2026 йилларда қабул қилинган янги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва «бир контур — бир маҳсулот» тамойили доирасидаги амалий ишлар таҳлили келтирилган.

Калит сўзлар: маҳаллий саноат, ишлаб чиқариш кооперативлари, кластер, узумчилик кластери, балиқчилик, туризм, эконометрик прогноз, сценарий таҳлили, ишлаб чиқариш кучларини жойлаштириш, Наманган вилояти, маҳалла иқтисодиёти, «бир контур — бир маҳсулот».

В статье исследуются кластерный подход к формированию местной промышленности в Наманганской области и прогнозные параметры промышленной трансформации до 2030 года. Согласно методике автора, из 136 махаллей 63 признаны перспективными для размещения промышленных предприятий: 35 — «зелёная» группа (71–100 баллов), 16 — «жёлтая» (41–70), 12 — «красная» (0–40). Предложено создание трёх специализированных кластеров: виноградарство (Янгикурған, Поп, Чуст), рыбоводство (Учкурған, Норин, Мингбулок), туризм